

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

5/2-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

5/2-сан 2024

октябрь

Шөлкемлестіріушілер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Хушбоқ НОРБҰТАЕВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Сафо МАТЧОН
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Камаладин МАТЯКУБОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Алима МАТКАРИМОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Раъно ОРИПОВА
Марифжон АХМЕДОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Норим РАХМАНОВ
Фархад БАБАШЕВ	Мукаддас РАХМАНОВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Дурдона РАХМАТУЛЛАЕВА
Гулзода БОЙМУРОВОДА	Светлана СМЕРНОВА (Москва, Россия)
Шахло БОТИРОВА	Феруза САПАЕВА
Комил ГУЛЯМОВ	Мухаббат САЛАЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Қаххор ТУРСУНОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Дилдора ДАВРОНОВА	Нурзода ТОШЕВА
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Саодат ТОШТЕМИРОВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Шохида ИСТАМОВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Умида ИБРАГИМОВА	Амангелди КАМАЛОВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Ризамат ШОДИЕВ
Джавдод ПҰЛАТОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Пердебай НАЖИМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Асқарбай НИЯЗОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Сабит НУРЖАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
	Гулрухсор ЭРҒАШЕВА
	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ



Abdurasulov J. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining bugungi kundagi pedagogik va psixologik dolzarbligi	191
Ozodqulov O.B. Ta'lim muassasalari rahbarlarining samarali boshqaruv faoliyatida sog'lom va ijodiy muhitni rivojlantirish omillarining kognitiv tahlili	196
Kobilova Sh.X. Inklyuziv ta'limni uzluksizligi ta'minlash va uni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning nazariy jihatleri	201
Turakulov B.N. Ekopsoxologik kreativ qobiliyatini rivojlantirishning psixologik omillari	206
Vafoyeva G.B. Pedagogik jamoada sog'lom muhitni shakllantirish va rivojlantirishning afzalliklari	210
Burxanova M.B. Muomala odobi – axloqiy va muomala madaniyatning muhim elementi sifatida	214
Raxmanova D.U. Talabalarining intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik determinantlari	220
Abduqodirova D.E. Talabalarda emotsional kreativlik sifatlarini rivojlantirish	224
Xurramov K.M. Personalni korporativ boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari	230
Kadirova X.A. Jadid adabiyoti namondalarining ta'lim tarbiyaga oid asarlaridan samarali foydalanish	235
Janbayeva M.S. Interfaol metodlar asosida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy mobilligini shakllantirish	241
Temirbekova A.O., Yusupbayeva L. Inklyuziv ta'lim sharoitida ona tili o'qitishning innovatsion pedagogik usullari	248
Rustamov B.X. Falsafa kategoriyalari asosida pedagoglarning prognozlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi	253
Qazoqova D.Q. Umumta'limda biologiyani vitagenlashtirilgan ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishni takomillashtirish metodikasi	257
Abduvaliyev N.A. "Tarbiya" fanini o'qitishda kundalik-amaliy topshiriqlarning pedagogik zarurati:tajriba va zamonaviy yondashuvlar	264
Usmonova D. O'quvchilarda bag'rikenglik munosabatini shakllantirish	274
Abduvaliyev N.A. Kundalik-amaliy topshiriqlar va uning o'quvchilar kognitiv mustaqilligini rivojlanishdagi ahamiyati	280
Turdiyeva Sh.A., Toshlanova M. Yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik jihatleri	290
Абдуллаев А.А. Халқ ўйинлари узлуксиз таълимда жараёнида	297
Abdullayev E.Z. Bo'lajak o'qituvchilarni sun'iy intellekt vositasida o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlash	302
Narimbaeva L.K., Musaeva G.M. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot xususiyatlari	309
Xamrayeva A.F. Talabalarda o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantirishning psixologik determinantlari	316
Ўролбоева Д.С. Педагог тарбиячиларда компетентликни ривожлантириш	321
To'lanova M.M. Bo'lajak pedagoglarda kasbiy deformatsiya psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi masalasi	328
Sayfiyeva Y.O., Fayzullayev R.X. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholash	333
Бегимкулов Х. Ш. Рақамлаштириш муҳитида педагогнинг ахборот компетентлиги мазмуни ва ривожлантириш муаммолари	338
Холмухамедов Т.М. Техникум талабаларининг кўникмаларни ривожлантиришда шахсга йўналтирилган таълимни амалга оширишнинг аҳамияти	344
Djumaniyazov I.I. Tarixni o'qitish jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish texnologiyasi	349



INTERFAOL METODLAR ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KASBIY MOBILIGINI SHAKLLANTIRISH

Janbayeva M.S.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Umumiy pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: interfaol, interfaol ta'lim, metod, texnologiya, teskari aloqa, mexanizm, tajriba, trening, model, loyiha, refleksiya, kollaj.

Ключевые слова: интерактив, интерактивное образование, метод, технология, обратная связь, механизм, опыт, обучение, модель, проект, рефлексия, коллаж.

Key words: interactive, interactive education, method, technology, feedback, mechanism, experience, training, model, project, reflection, collage.

Резюме:

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy mobilligini shakllantirishda interfaol metodlarni qo'llash samarali vosita ekanligi hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mobilligi, bilimlari va kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishga, bo'lajak kasbiy faoliyatga oid nostandart vaziyatlarni modellashtirishga, o'zini pedagogik jarayonning faol subyekti sifatida idrok etishiga, har bir harakati va qarori uchun mas'uliyatni his etish va muvaffaqiyatga erishishda ko'maklashishi haqida fikr yuritilgan.

Резюме:

В данной статье показано, что использование интерактивных методов является эффективным инструментом формирования профессиональной мобильности будущих учителей, а также нестандартных ситуаций, связанных с систематическим развитием профессиональной мобильности, знаний и профессиональных компетенций будущих учителей. Учителя, моделирование будущей профессиональной деятельности, восприятие себя как активного субъекта педагогического процесса, чувство ответственности за каждое действие и решение и помощь в достижении успеха.

Summary:

This article shows that the use of interactive methods is an effective tool for the formation of professional mobility of future teachers, as well as non-standard situations related to the systematic development of professional mobility, knowledge and professional competencies of future teachers. Teachers, modeling future professional activity, perceiving oneself as an active subject of the pedagogical process, a sense of responsibility for each action and decision and assistance in achieving success.



Hozirgi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning mavjud tizimi bilan bo'lajak o'qituvchi faoliyatining kasbiy-ijodiy tavsifi orasida ham nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar aksariyat hollarda asosan o'quv dasturlari va darsliklarga bog'lanib qoldilar, ularning kasbiy mobilligini, kompetentligini va kreativ faoliyatlarini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmadi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimi jamiyat ehtiyojlari va uning o'tkir muammolaridan sal uzoqlashgan edi. Ushbu nuqtai-nazardan, erkin va shaxsga yo'naltirilgan interfaol ta'lim muhitini shakllantirish, bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tiborga olinmoqda.

Interfaol ta'lim – bo'lajak mutaxassislardagi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning eng samarali shakllaridan sanalib, unda talabalarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim omili bo'lgan shaxs mustaqilligi ta'minlanadi va rivojlantiriladi. Tadqiqotchilardan T.S.Banina va L.N.Vavilovalar interfaol ta'limning samarali jihatlarini baholaydilar. Ular quyidagicha:

- √ 1. *Interfaol ta'lim* talabalarining bilish ko'nikmalarini va o'quv-o'rgnish jarayonlarini faollashtirish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni aniq vaziyatlarda qo'llash olish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy izlanish imkonini beradi;
- √ 2. *Interfaol ta'lim* metodlari va texnologiyalari – ta'lim oluvchilardagi motivatsiyani, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalarini, tadqiqotchilik faolligi, kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi;
- √ 3. *Interfaol ta'lim* muhiti talabalarda muammolarni ko'ra bilish, tahlili qilish, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, tolerantlik, o'zgalar fikriga hurmat, jamoadagi hamkorlik, hayotiy qadriyatlarini rivojlantirishga qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Bundan tashqari, interfaol (*interactive*) o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: o'quv fanining mazmuni; ta'limiy ta'sirning shakllantirilishi; talabalarining o'quv faoliyati; talabalar o'quv faoliyatining nazorati; talabalar o'quv faoliyati natijalarining bahosi; teskari aloqa. Mazkur tizimning tarkibiy qismlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Ular bir-biridan mustaqil tarzda mavjud bo'la olmaydi. Shuning uchun ham interfaol o'qitishning barcha tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorlikda tahlil etilishi zarur. Ta'lim oluvchilarga nisbatan ta'sirning shakllanishi muayyan o'quv fani doirasidagi nazariy materiallar bilan muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Ta'limiy ta'sir yangi o'quv materialining bayoni yordamida



vujudga keladi. Bu jarayonda amaliy topshiriqlar, mashqlar, misollar, metodik ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar, tushuntirishlar, o'rganilayotgan materiallardan olingan ma'lumotlarning namoyishi katta ahamiyatga ega. Talabalarning o'quv faoliyati ularning o'quv materiallarini idrok etishlari, esda saqlashi, fikrlashi, o'z bilimlarini amaliy faoliyatlarida qo'llash jarayonida mustahkamlanib boriladi. Shuningdek, interfaol o'qitish jarayonining o'ziga xos farqli jihati bu tizimda talabalarning o'quv faoliyati o'z-o'zidan nazorat qilinishidadir. Nazorat natijalari talabalar bilim darajasini baholashda hisobga olinadi. Shu asosda teskari aloqa orqali navbatdagi o'quv faoliyatining samarali amalga oshishi ta'minlanishi mumkin. Shu tarzda interfaol o'qitishning boshqa bir farqli jihati muayyan o'quv faoliyati jarayonidagi teskari aloqa orqali talabalar faoliyatiga tezkorlik bilan tuzatishlar kiritish imkoniyatining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu esa talabaning bilim darajasi, u yo'l qo'ygan xatolar, uning ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq.

Interfaol metodlarni ta'lim jarayonida qo'llash dastlab XIV asrda ilmiy jihatdan asoslanib, XX asrning 70 yillaridan boshlab o'qitish jarayoniga kirib keldi va o'qituvchilar tomonidan qo'llanila boshlangan. Ta'lim jarayonida juft-juft yoki guruhli tarzda o'qitish asosida tashkil etish XII asrda paydo bo'lib, XX asrning oxirlarida ushbu g'oya negizida bilim-tajriba-ta'lim oluvchi modelining shakllanishiga asos yaratdi. Ushbu model mohiyatini yorituvchi ta'lim paradigmasi guruhli o'qitish tarzida nomlanib, u talabalarning o'quv faoliyati doirasida o'z-o'zini anglash, vaqtning samarali o'tishiga erishish, teskari aloqa sifati va miqdorini orttirish, didaktik materiallar sifatini yaxshilash, o'z-o'zini boshqarish tizimini kengaytirish, rivojlantiruvchi ta'lim paradigmasini tatbiq etish, yangi kurslar mazmunini loyihalashtirish, o'quv rejasini takomillashtirish, ta'lim jarayoni subyektlarining o'quv imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ular faoliyatini baholashda qulay vositalardan foydalanishga xizmat qiladi. Interfaol o'qitishning xarakterli jihatlari o'qituvchi bilan talabaning muntazam tarzda amalga oshiriladigan birgalikdagi faoliyati muhim o'rin egallashi bilan ko'rinadi. Chunki har bir talabaning o'ziga xos imkoniyatlari va ehtiyojlari mavjud hisoblanadi.

Interfaol ta'lim jarayoni o'zida har qanday usullar, yo'llar, metodlari, o'quv jarayonini tashkil etish va takomillashtirish mexanizmlarini mujassamlashtiradi. Chunki mazkur jarayon quyidagi didaktik talablarga javob berishi zarur. Ular quyidagilardan iborat:

1	interfaol ta'lim jarayonini tashkil etish hamda uning sifatini tekshirish va nazorat qilishda talabalarning tavsifnomalari, talablari, ehtiyojlari, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
---	---



2	interfaol ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini amalga oshirishda talabalar va o'qituvchilarning hamkorligini tashkil etish;
3	talabalarining o'zlari uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni egallashlaridagi faolliklari, tashabbuskorliklari, ijodkorliklari, yaratuvchiliklarini ta'minlash;
4	interfaol ta'lim jarayonini bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga imkon qadar yaqinlashtirish;
5	interfaol ta'lim jarayoni natijalarini amaliyotga tatbiq etish orqali talabalarining istiqboldagi kasbiy faoliyatini rivojlantirish;
6	talabalarining kasbiy-pedagogik faoliyat sohasiga xos bo'lgan kompetensiyalarni egallash va o'zlarini mustaqil rivojlantirishlarini ta'minlash.

Interfaol ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilar faoliyatini ta'limning turli yo'nalishlari bo'yicha tashkil etish imkonini beradi. Asosan ular quyidagilardan iborat: tashkiliy yo'nalish: interfaol mashg'ulotlar, treninglar, munozaralar, ishchan o'yinlar, matbuot konferensiyalarini tashkil etish va o'tkazish;

Demak, interfaol o'qitish metodlari quyidagilarni ta'minlashga xizmat qiladi:

yuqori darajadagi kasbiy ko'nikmalarni hosil qiladi;
olingan bilimlarning mustahkamligini ta'minlaydi;
talabalarda ijodkorlik va kognitiv qobiliyatni shakllantiradi;
talabalarining muloqotga kirishuvchanligini shakllantiradi;
talabalarining faol hayotiy-kasbiy mavqeni egallashlariga ko'maklashadi;
talabalar orasida hamkorlik va jamoaviylik ruhini vujudga keltiradi;
talabalarining o'ziga xosliklarini qadrlashlariga zamin yaratadi;
talabalarining o'zlarini erkin tarzda namoyon qilishlariga xizmat qiladi;
talabalarda o'z kasbiy faoliyatlariga urg'u berish ko'nikmasini tarkib toptiradi;
talabalarda o'zaro hurmat hissini qaror toptiradi;
talabalar bilan o'qituvchilar orasida demokratik munosabatlarni shakllantiradi.

Bu esa o'z navbatida talabalarni kasbiy mobilligi, bilimlari va kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishga, bo'lajak kasbiy faoliyatga oid nostandart vaziyatlarni modellashtirishga, talabalarni pedagogik jarayonning faol subyekti sifatida idrok etishiga, har bir harakati va qarori uchun mas'uliyatni his etish va muvaffaqiyatga erishishda ko'maklashadi. Interfaol metodlarning bir nechta turlarini keltirib o'tamiz:

“TO‘RT (4) TARAF” metodi. Metodning maqsadi: berilgan muammoni 4 taraflama o'ylab ko'rib, muammo yuzasidan bilimlarni oshirish va mustaxkamlash. Bu metoddan foydalanish uchun kerakli vositalar: A4 yoki A3 formatli oq qog'oz va marker. Metoddan foydalanish uchun o'tilgan



mavzu yoki o‘tilgan fandagi biron bir bo‘lim tanlab olinadi va shu mavzu yoki bo‘limni yorituvchi 4 ta savol o‘qituvchi tomonidan tuziladi. (3 ta savol va 1 ta amaliy topshiriq ham bo‘lishi mumkin). Oq qog‘oz quyidagi shaklga keltiriladi. Shundan so‘ng markazdagi oval shakl ichiga tanlab olingan mavzu yoziladi. Atrofida 4 ta katakka savol va topshiriq beriladi. Masalan, “mavzu” qismiga “O‘zbekiston” deb yozamiz. 4 ta katakka:

1. *Poytaxti.*
2. *Viloyatlari.*
3. *Chegaradosh davlatlar.*
4. *Ramzlaridan birini chizing.*

Daraxt metodi. Bu metodning maqsadi o‘quvchilarning mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish. Bunda asosan katta o‘lchamdagi daraxt rasmi va mevalar shaklidagi rangli qog‘ozlar (stikerlar) zarur bo‘ladi. Daraxt metodini maqsadlarga ko‘ra turli nomlar bilan qo‘llash mumkin. Masalan: “Kutuvlar” daraxti metodi. Metodning maqsadi: jarayonni refleksiya va tahlil qilish. Zarur vositalar: katta formatdagi oq qog‘ozda daraxtning rasmi, olma shaklidagi rangli, yopishadigan (stikerlar) qog‘ozlar. O‘tkazish bosqichlari:

1. Daraxt rasmi doskaga yopishtiriladi va olma shaklidagi rangli qog‘ozlar (stikerlar) tinglovchilarga tarqatiladi.

2. Rejalashtirilgan jarayon bilan o‘quvchilar tanishtiriladi.

3. O‘quvchilarga vazifa beriladi. Ushbu olma shaklidagi rangli stikerlarga olib borilishi rejalashtirilgan jarayon bo‘yicha kutuvlaringizni yozing (1-2 daqiqa).

4. O‘qituvchi yozilgan kutuvlarni ketma-ket o‘qib eshittiradi va ketma-ket “Kutuvlar daraxti”ga yopishtiradi.

5. O‘qituvchi rejalashtirgan o‘quv jarayoni olib boriladi.

6. O‘quv jarayoni yakunida kutuvlar o‘qituvchi tomonidan yana bir bor o‘qib eshittiriladi, agar kutuvlar “oqlangan” bo‘lsa, “daraxt”da qoladi, agar “oqlanmagan” bo‘lsa, “yerga to‘kiladi”. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, ayrim metodlarni o‘qituvchi o‘z tajribasi va ijodkorligidan kelib chiqqan holda metodni qo‘llashdagi yangi maqsadlarni, qo‘llash bosqichlarini hattoki metodni qisman nomini o‘zgartirib foydalanish uchun reja tuzishlari mumkin.

“Qadamma-Qadam” (Step By Step) metodi. O‘qituvchi biron bir ma’lumotni ketma-ket, qadamma-qadam berish lozim bo‘lgan vaziyatlarda shu metoddan foydalansa bo‘ladi. Bunda rangli qog‘ozlarga bir nechta (bolalar poyabzali shakli) berilishi joiz bo‘lgan ma’lumotlar sonida qadamlar chiziladi va ma’lumotlar birin ketin shu qadamlar ichiga yoziladi. Doskaga ma’lumotlar birin-ketin dars paytida mavzu bayoni bilan xamohang tarzda ilinadi. Ilinganda



oyoq izlari ketma ketligida yopishtiriladi. Bu o'quvchilarni jalb etishga, ma'lumotlarni tizimlashtirishga, muntazam jalb etish orqali ma'lumotlarning yodda saqlanilishiga, istak-xohish qiziqishi, motivatsiyaning oshishiga, har bir ma'lumotning ketma-ketligini aniqlash ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

“Kollaj” metodi. Kollaj metodi qo'llanilganda bajarish lozim bo'lgan topshiriqni har turli tasvirlar, belgilar, shakllar, harf, raqam va shu kabilardan foydalangan holda bajarish nazarda tutiladi. Bu metod o'ziga xos universal xususiyatga ega bo'lib turli yoshdagi ta'lim oluvchilar bilan har xil mavzular bo'yicha mashg'ulotlarda qo'llanilishi mumkin. Quyida ayrim namunalarni keltiramiz.

“Men orzu qilgan maktab” mashqi. Mazkur mashg'ulot kichik guruhlarda olib boriladi. Ularga bu jarayonni boshlashlari uchun har bir guruhga bitta flipchart va turli xil rangli marker beriladi. Vazifa: orzu qiling va orzu qilgan maktabingiz tasvirini chizing. Buning uchun 15 daqiqa vaqt beriladi. Ish yakunlangach, har bir guruhdan bir ishtirokchi taqdimot o'tkazadi. Taqdimot uchun reglament 3-5 daqiqa. Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish jarayonidan boshlab interfaol metod va texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini tashkil qilish, olib borish maqsadga muvofiq bo'lishi bilan birga o'qituvchi o'quvchining lug'ati va nutqida yangi tushunchalarni shakllantiradi. Ta'lim jarayonida foydalanilayotgan metod va texnologiyalarda o'quvchilar va o'qituvchining bajarayotgan vazifasiga ko'ra nomlanadi.

“A4 format” metodi. A4 format metodini qo'llash uchun hech qanday kompyuter, doska kerak bo'lmaydi, bu metod o'quvchilarning o'ylash, fikrlash, chaqqonlik bilan harakatlanishga undash uchun xizmat qiladi. A4 format metodini barcha dars turlarida qo'llash mumkin, ya'ni o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlah, yangi mavzuni mustahkamlash, o'tilgan mavzularni umumlashtiruvchi darslarda o'quvchilarning mavzuga oid ma'lumotlarni eslash, takrorlash va tahlil qilish asosida bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantiradi. “A4 format” metodi uchun bizga oddiygina A4 formatidagi 3 dona oq qog'oz kerak bo'ladi. O'qituvchi darsga kirganidan so'ng o'tilganlarni takrorlash maqsadida o'quvchilarni 3 ta guruhga bo'ladi hamda har bir guruhga bir dona A4 formatdagi qog'ozni beradi. O'qituvchi metod shartlarini o'quvchilarga tushuntiradi. Bu metod sharti shundan iboratki, har bir guruh qatnashchisi o'tilgan mavzularga oid bir dona formula yoki bir dona ma'lumotni yozadi va ikkinchi qatnashchiga uzatadi, ikkinchi qatnashchi ham ma'lumot yozib uchinchi o'quvchiga uzatadi. Bunda har bir yozilgan ma'lumot qayta yozilmaslik sharti ham kiritiladi. Qaysi guruh birinchi bu vazifani tez,



xatosiz, bajarsa shu guruh g'olib bo'ladi. Bu metod orqali o'quvchilar nafaqat mavzuni takrorlaydilar, balki o'zlarining yodlaridan chiqqan ma'lumotlarni ham qayta eslash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilar uchun interfaol metodlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish kasbiy mobillikni shakllantirishda mustahkam va samarali asos bo'lishi mumkin. U bo'lajak o'qituvchilarning o'z kasbining talablariga ishonch, malakali va uzluksiz ta'lim olishga intilish bilan tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlaydi. Bunday yondashuv nafaqat individual o'qituvchilarga, balki boshlang'ich ta'limda umumiy sifatni oshirishga ham hissa qo'shadi.

Adabiyotlar:

1. Банина Т. С., Вавилова Л. Н. Современные способы активизации обучения. — М.: Академия, 2008. - 176 с.
2. Бондаревская Е.В. Педагогическая культура как общественная и личная ценность//Е.В.Бондаревская//журнал Педагогика, 1999.№ 3.- С.37-43.
3. Борулава, М. Н. Теоретические основы интеграции образования / М.Н.Борулава. - М.: Совершенство, 1998. - 192 с.
4. Janbayeva M.S., Qorayev S.B. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish "Экономика и социум" №5(84) 2021 www.iupr.ru. Academic research in educational sciences, 2(4).
5. Janbayeva M.S "Innovatsion jamiyat sharoitida zamonaviy o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlar" Муғаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў. <https://lib.cspi.uz/index.php?newsid=8093> 130-132 b
6. Janbayeva M.S Development of the national etiquette culture of future teachers based on a synergistic approach Diversity Research: Journal of Analysis and Trends Xalqaro ilmiy jurnal <https://academiaone.org/index.php/2/article/view/75/65> 5-7 b.
7. Khimmataliyev D.O., Abdijalilova Sh.A., Elmurzaeva N.X., Turaev M.F., Janbayeva M.S., Allayorova S.B. Formation of a cluster system in the sphere of education in Uzbekistan: problems and prospects Journal of Pharmaceutical Negative Results Volume 13 Special Issue 7 2022 SKOPUS <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/about> 5634-5638 b.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ»**

№ 5/2

Нөкис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednaik@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 09.10.2024. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нұсқасы _____ Буйыртпа №